

” MUBAYYIN “ASARINING SHARQ TAFAKKURIDAGI O‘RNI

Nabijonova Diyoraxon Ne‘matjon qizi

FarDU 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning diniy-huquqiy mazmundagi “Mubayyin” asarining ilmiy-falsafiy mohiyati, uning XV–XVI asrlar Movarounnahr ma’naviy hayotidagi o‘rnini va Bobur ijodida tutgan tarixiy ahamiyatini tahlil qilinadi. Asarning diniy-axloqiy g‘oyalari, shariat va axloq munosabatlari, hukmdor mas’uliyati, jamiyat barqarorligi kabi dolzarb mavzular yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Ilmiy-falsafiy g‘oyalar, diniy-axloqiy qarashlar, shariat, axloq, jamiyat, huquqiy-axloqiy qarashlar, fiqh ilmi, islom huquqi, uslub.

Tarixiy kitoblarda Zahiriddin Muhammad Boburning shohlik, sarkardalik va olimlik iste’dodidan tashqari fiqh ilmini mukammal bilgani ham keltiriladi. Zahiriddin Muhammad Boburning “Mubayyin” asari uning ulkan ilmiy-ma’naviy merosida alohida o‘rin tutadigan, diniy-huquqiy va axloqiy-falsafiy mazmunlarni o‘zida mujassam etgan noyob risolalardan biridir. Mazkur asarning ilmiy qiymati shundaki, Bobur uni oddiy xalqning diniy masalalar bo‘yicha tushunchalarini kengaytirish, shariat ilmlarini ona tilida sodda va ravon tarzda tushuntirish maqsadida yaratgan. Jumladan, Nisoriyning “Muzakkiri ahbob” (Sevimli zotlar yodnomasi) asarida Bobur haqida bunday so‘zlar bor: “Fiqh masalalarini yana bir risolada mubayyan qilganki, yozuvchisi donishmandligidan nishonadir. Turkiy va forsiyda yaxshi she‘rlari bordir. O‘shal fiqh risolasining nomi ”Mubayyin“ dir”.Bobur Mirzo “Mubayyin”da eng muhim islomiy ilmlarni saralab, o‘zining din olimi, faqih ekanini ham ko‘rsatgan. Sovetlar davrida “Mubayyin” asari xalqdan yashirildi, faqat istiqlol yillari izohlar bilan nashr etildi. nihoyatda go‘zal uslubda bayon qilingan. Bu asar bilan Bobur o‘z davri badiiy-adabi-diniy ilmlari rivojiga go‘yoki sarhisob yasaydi. Bobur bu asarni yozishda

hanafiy mazhabining “Hidoya”a “Mutasaru-l-viqoya” kitoblarini asos qilib oladi. Bu asar xalqqa tushunarli bo‘lishi uchun fors va arab tilidagi so‘zlardan kamroq foydalanib, asosan turkiy turkiy so‘zlardan foydalangan. Boburning XV-XVI asr boshlaridagi asarlari o‘zbek tilining xususiyatlarini aks ettiradi. Tadqiqotchilar uning tili yozma tilga yaqin bo‘lganini qayd etganlar. Bobur Andijon shevasida yozgan bo‘lib, uning asarlari Chig‘atoy turkiy nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. U XIV-XV asrlardagi fors tilining ta’sirini kamaytirishga harakat qilgan va jonli, ravon tilda yozishga intilgan. Alisher Navoiy singari, Bobur ham o‘zbek tilining yozma shaklini rivojlantirishga e’tibor qaratib, imlo qoidalari va grammatik tartiblarni mustahkamlashga harakat qilgan. Bobur islom bilimlarni puxta o‘rgangan bo‘lib, ushbu sohada muhim manbaalarni mutolaa qilgan. U Ali ibn Abu Bakr al-Marg‘inoniyning “Hidoya”si, Sharaf Romiyning “Fiqh muxtasari” kabi asarlaridan foydalangan. Shuningdek, mavqei tufayli turli majlislarda o‘sha davrning yetuk olimlarini jamlagan va Mulla Mahmud, Qozizoda Ihtiyor, Ali ibn Abu Bakr al-Marg‘inoniy kabi mutaxassislar bilan ilmiy suhbatlar qurgan. Zahiriddin Muhammad Boburning “Mubayyin” asari uning ulkan ilmiy-ma’naviy merosida alohida o‘rin tutadigan, diniy-huquqiy va axloqiy-falsafiy mazmunlarni o‘zida mujassam etgan noyob risolalardan biridir. Mazkur asarning ilmiy qiymati shundaki, Bobur uni oddiy xalqning diniy masalalar bo‘yicha tushunchalarini kengaytirish, shariat ilmlarini ona tilida sodda va ravon tarzda tushuntirish maqsadida yaratgan. “Mubayyin” so‘zi “tushuntiruvchi”, “bayon qiluvchi” ma’nolarini anglatadi, bu esa asarning mazmuniy mohiyatiga to‘liq mos keladi. Bobur otasi yo‘lidan borib, mashhur so‘fiy – Xoja Ahrorga ixlos qo‘yadi va uning tariqati ruhida voyaga yetadi, umrining oxiriga qadar shu e’tiqodga sodiq qoladi. Keyinchalik, „Boburnom“ asarida Bobur Xoja Ahror ruhi bir necha bor uni muqarrar halokatdan, xastalik va chorasizlikdan xalos etganini, eng og‘ir sharoitlarda rahnamolik qilganligini ta’kidlaydi.

“Mubayyin” asari islom dini taraqqiyotini aks ettiruvchi noyob diniy-huquqiy manba sifatida ilmiy ahamiyatga egadir. Asar hanafiy fiqh asoslariga tayanib yozilgan bo‘lib, u ibodat va kundalik hayotga oid masalalarni ommaga

sodda va tushunarli tarzda yetkazishga qaratilgan. Ushbu maqolada Mubayyinning turli fanlar nuqtayi nazaridan o'rganilganligi tahlil qilindi. Avvalo, fiqhiy va lingvistik tadqiqotlar asarning diniy mazmuni bilan birga uning uslubiy va leksik xususiyatlarini ochib berdi. Uslubiy jihatdan esa "Mubayyin" Alisher Navoiy asarlaridan farqli ravishda soddalashtirilgan va didaktik ruhda yozilgan. Ayniqsa, "Zillulloh" (Allohning soyasi) iborasining Mubayyin bilan bog'lanib tahlil qilinishi Boburning siyosiy-diniy mavqeini tushunishda muhim manba sifatida xizmat qilgan. Bobur "Mubayyin"ni Hindistonga yurishlari, siyosiy beqarorliklar, diniy firqalarning tarqoqligi kuchaygan davrda yozgan. U hukmdor sifatida adolat, tartib va ma'rifatning jamiyat hayotidagi ahamiyatini juda yaxshi anglab yetgan va diniy savodsizlikning xalq ongiga salbiy ta'sirini sezgan. Shuning uchun asarni aynan turkiy tilida yozish unga strategik maqsad sifatida ko'ringan. O'sha davrda diniy manbalar ko'proq arab va fors tilida bo'lgani sabab, xalq ulardan to'liq foydalanolmas, diniy masalalardagi noto'g'ri talqinlar esa ijtimoiy hayotda tushunmovchilik va mojarolarga sabab bo'lardi. Bobur bu holatni bartaraf etish uchun diniy hukmlarni sodda, tushunarli va o'quvchi ongiga mos shaklda sharhlashni o'z zimmasiga olgan. "Mubayyin"ning mazmuni e'tibori bilan fiqh ilmining asosiy qoidalariga tayanadi. Unda tahorat, namoz, ro'za, zakot, haj kabi islomning asosiy farz amallari tavsiflanadi, halol va harom masalalari izohlanadi, musulmonning o'z nafsini boshqarishi, poklikka e'tibor berishi, o'z burchlarini ado etishi haqida chuqur qaydlar beriladi. «Mubayyin»da har bir musulmon uchun amal qilishi lozim bo'lgan besh farz bayon etiladi:

Kim-ki avval bo'lsa bolig'-u oqil,
Anga besh farzdur muni bilgil.
Biri iymondur-u ikkinchi salot,
Bu ikidin keyin uchunchi zakot,
Ramazon ro'zasi-yu haj o'tamak,
Farz ayn o'ldi ushbu besh beshak.

Ammo Boburni boshqa fiqh ulamolaridan ajratib turadigan jihat – hukmlarni shunchaki sharhlash emas, balki ularga hayotiy, ma’naviy va amaliy mazmun baxsh etishidir. U har bir diniy hukmning inson ruhiyatiga, jamiyat barqarorligiga va davlat boshqaruviga ta’sirini alohida tahlil qiladi. Asarda hukmdor va xalq o’rtasidagi axloqiy mas’uliyat, odillik, yolg’ondan yiroqlik, halollik va poklik tamoyillari alohida urg’u bilan yoritiladi. Bu jihatlar “Mubayyin”ni nafaqat diniy risola, balki siyosiy-etika qo’llanmasiga aylantiradi. Bobur asarni yozar ekan, til masalasiga ham alohida e’tibor qaratgan. Uning maqsadi diniy ilmlarni turkiy xalqlarga ona tilida yetkazish, ilmni ommalashtirish bo’lgan. Shuning uchun matnda xalqaro iboralar, sodda gap tuzilmalari, o’sha davr turkiy tilining tabiiy ifodaviy unsurlari keng qo’llanadi. Bu xususiyat “Mubayyin”ni turkiy tilda yozilgan diniy-adabiy manbalar ichida alohida o’rinli qiladi. U faqat diniy risola bo’lib qolmay, balki o’sha davr tilining leksik, sintaktik, stilistik imkoniyatlarini o’rganuvchilar uchun ham qimmatli manbadir.

Bobur hukmlarni shunchaki sharhlamaydi, balki ularga hayotiy, ma’naviy va amaliy mazmun baxsh etadi. U har bir diniy hukmning inson ruhiyatiga, jamiyat barqarorligiga va davlat boshqaruviga ta’sirini alohida tahlil qiladi. Asar Boburning ichki dunyosini, ma’naviy kechinmalarini, hukmdor sifatidagi mas’uliyatini ham yoritib beradi. Unda Bobur nafaqat fiqh ulamosi, balki hayot sinovlarini boshidan o’tkazgan, adolatga intilgan davlat rahbari sifatida namoyon bo’ladi. U insonning to’g’ri yo’ldan og’ishi, hiyla va yolg’onning jamiyatga keltiradigan zararlarini batafsil tushuntiradi. Shuningdek, ilmning fazli, pok axloq, saxovat, sabr-toqat, tavakkul kabi fazilatlarini ham alohida ulug’laydi. Bu esa “Mubayyin”ni axloqshunoslik nuqtayi nazaridan ham bebaho manba sifatida ko’rsatadi.

Asar Sharq ma’rifatparvarlik an’anasining davomchilardan biri sifatida qaraladi. Bobur Navoiy, G’azzoliy, Moturudiy singari allomalarning ma’rifiy qarashlaridan foydalanadi, ammo ularni takrorlamaydi, balki o’zining hukmdorlik tajribasi, boshdan kechirgan tarixiy jarayonlari bilan uyg’unlashtiradi. Shu bois risola

diniy, axloqiy va siyosiy fikrning bir-biriga singdirilgan holdagi noyob namunasi sifatida qadrlanadi. “Mubayyin”ning tarixiy ahamiyati shundaki, u turkiy xalqlar orasida diniy kitoblarni ona tilida yozish an’anasini kuchaytirgan, xalqning ma’naviy saviyasini oshirishga xizmat qilgan. Hozirgi davr uchun ham bu asarda ilgari surilgan g’oyalar – adolat, poklik, ilmga hurmat, jamiyat oldidagi mas’uliyat – o’z dolzarbligini yo’qotmagan. Bobur fikrlariga ko’ra, jamiyat taraqqiyoti avvalo axloqiy poklik va adolatga tayanadi. Bu fikr o’tgan besh asrdan buyon o’z kuchini yo’qotmagan va hozirgi zamon ijtimoiy hayotida ham muhim prinsip sifatida xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, “Mubayyin” Boburning eng chuqur ma’rifiy asarlaridan biri bo’lib, unda hukmdor, mutafakkir va shoirning dunyoqarashi mujassamdir. Asar diniy ilmlarni ommalashtirishga qaratilgan sodda va ravon bayoni, axloqiy fikrlarning hayotiyligi, jamiyat barqarorligi haqidagi mulohazalarning teranligi bilan boshqa risolalardan ajralib turadi. Bobur bu asar bilan nafaqat fiqh ilmining talqiniga hissa qo’shgan, balki turkiy xalqlar ma’naviy madaniyati taraqqiyotiga ham katta ta’sir o’tkazgan. “Mubayyin” bugun ham diniy, tarixiy, axloqiy va adabiy tadqiqotlar uchun bebaho qo’llanma bo’lib qolmoqda.

Foydalanilgan

adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur – “Mubayyin”, qo’lyozmalar fondi.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur – “Boburnoma”.
3. Yoqubov Sh. “Bobur ijodi va uning ilmiy merosi”. Toshkent, 2005.
4. Qobulov I. “Boburshunoslikka kirish”. Toshkent, 2010.
5. Vohidov R. “Turkiy diniy-adabiy manbalar tahlili”. Buxoro, 2018.
6. Burhoniddin Marginoniy. “Hidoya”.